

**PEDAGOGIK FAOLIYATDA KOMPTENTLIK VA KOMPTENSIYA
TUSHUNCHALARI**

Xusanova Ma'luda Nurdinovna

Namangan davlat universiteti doktoranti

Tel: 94-159-83-64 maludaxusanova82@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada oliy ta'lim muassalari yosh olimlarida kompetentlik va kompetensiya tushunchalari va ularning turlari, shuningdek pedagogik faoliyatda qo'llash bo'yicha bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilingan.*

Tayanch so'z va tushunchalar: *ilmiy tadqiqot kompetentlik, tadqiqotchilik kompetentligi, kasbiy kompetentlik, kreativlik, tadqiqotchilik faoliyati, kompetensiya, kompetensiya turlari.*

**ПОНЯТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ И КОМПЕТЕНЦИИ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

Аннотация: *В статье анализируются сведения о понятиях компетентности и компетентности молодых ученых высших учебных заведений и их видах, а также их применении в педагогической деятельности.*

Ключевые слова: *научно-исследовательская компетентность, исследовательская компетентность, профессиональная компетентность, креативность, исследовательская деятельность, компетентность, виды компетентности.*

**CONCEPTS OF COMPETENCE AND COMPETENCE IN PEDAGOGICAL
ACTIVITY**

Abstract: *The article analyzes information on the concepts of competence and competence in young scientists of higher education institutions and their types, as well as their application in pedagogical activities.*

Key words: *scientific research competence, research competence, professional competence, creativity, research activity, competence, types of competence.*

Kompetentsiya- ma'lum bir fan sohasida samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va tajribaning mavjudligi. Kompetensiya (lot.competens - mos, mos, mos, qobiliyatli, bilimdon) - har qanday sohada har tomonlama bilimga ega bo'lgan va shuning uchun fikri salmoqli, obro'li bo'lgan shaxs sifati; Kompetensiya - real, hayotiy harakatni amalga oshirish qobiliyati va shaxsning faoliyatga qo'shilishi paytida olingan malakaviy xususiyat; har qanday harakat ikki jihatga ega bo'lganligi sababli - resurs va samarali, bu resursning mahsulotga aylanishini belgilaydigan kompetentsiyalarni rivojlantirishdir; Kompetentsiya - mavzuni bilish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga potentsial tayyorlik; mazmun (bilim) va protsessual (mahorat) komponentlarini o'z ichiga oladi va muammoning mohiyatini bilish va uni hal qilish

qobiliyatini nazarda tutadi; bilimlarni doimiy ravishda yangilab turish, ushbu bilimlarni muayyan sharoitlarda muvaffaqiyatli qo'llash uchun yangi ma'lumotlarga ega bo'lish, ya'ni. operativ va mobil bilimlarga ega bo'lish;

Kompetentsiya - ma'lum bir kompetentsiyaga ega bo'lish, ya'ni. o'z faoliyati haqidagi bilim va tajriba, ularga hukm chiqarish va qaror qabul qilish imkonini beradi.

Komptentlik - ma'lum holat xususida to'g'ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo'lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. **Kompetentlik** shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo'lib, ma'lum sohadagi bilim, ko'nikma va tajribani mujassamlashtirishi. **Kompetentlik** insonga muayyan masalalarda fikr bildirish, ma'lum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish va o'zi qaror qabul qilish imkonini beradi. Hozirgi zamon fanida kasbiy kompetentlik, ilmiy, boshqaruv, pedagogik, didaktik, metodik, ijtimoiy-psixologik kompetentlikka oid tushunchalar keng qo'llanadi. Boshqaruvga oid kompetentlik ana shu sohaga taalluqli bilim va ko'nikmalarning, rahbarlik faoliyatida amaliy tajribaning mavjudligi bilan belgilanadi.

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari.

Ilmiy izlanishlar natijasiga ko'ra ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentlik ta'lim tizimini boshqaruv jarayoni uchun zarurat sifatida qaralmoqda. Bu esa o'z navbatida boshqaruvchi tomonidan alohida bilim, ko'nikma va malakalarning o'zinigina emas, balki egallanishi lozim bo'lgan har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar, boshqaruvning ta'sirchan usul va vositalari, boshqaruvdagi muomila madaniyati va rahbarlik faoliyatiga doir ijodiy harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Kompetensiya va **kompetentlik** tushunchalari deganda asosan zamonaviy fanda xodimlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilishda kompetensiya tushunchasiga muhim ahamiyat berilmoqda.

“**Kompetentlik**” - tushunchasi dastlab ta'lim sohasiga psixologik, pedagogik izlanishlar natijasida kirib kelgan tushuncha bo'lib, zamonaviy atama sifatida qo'llanilib kelinmoqda.

«Competentia» lotincha so'zdan olingan bo'lib, o'zbek tilidagi tarjima qilinganda unung lug'aviy ma'nosi «yaxshi biladigan inson», «tajribaga ega bo'lgan kishi» kabi ma'nolarni bildiradi. Shu sababli kompetentlik ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan turli xil vaziyatlar, kutilmagan holatlar rahbarning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishuvchanligi, qo'l ostidagilarni ruhiy holatlarini tushuna olish qobiliyatiga ega bo'lishi, raqobaddosh tomonlar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarda mavjud muammolar ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda rahbar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniq maqsadlar asosida qo'llay olish, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kompetensiya - xodimning kompaniyada kutayotgan darajada va belgilangan tarkibda ishlab chiqarish xulqini muntazam ravishda namoyish qilishga tayyorlik qobiliyati. **Kompetensiyalar** tizimini yaratishda tashkilot xodimlarning faoliyatiga taalluqli muhim mezonlar majmuasini standart talablarga asosan tuzadi. Shuningdek, kompetensiya xodimlarning tashkilotda ham professional, ham ijtimoiy jihatdan tengligi xususida guvohlik beradi.

XX asrning 90-yillarida mutaxassislariga malakaviy talablarni quyuvchi “Xalqaro mehnat tashkiloti” malaka oshirish hamda boshqaruv xodimlarni kasbiy qayta tayyorlashda “tayanch

kompetensiya”lar degan tushunchani fanga kiritdi. Tayanch kompetensiyalari turli xil kasbiy birlashmalarda mutaxassislarning ijtimoiy-professional jihatdan ta'minlanishi hamda faoliyatga moslashishida xodimlarning xizmat vazifalaridan kelib chiqib o'ziga xos xarakter kasb etadi. Personalni boshqarish alohida ahamiyat kasb etib, tashkilotda kishilarga ta'sir ko'rsatuvchi uchta asosiy omilga alohida diqqat-e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Bular tashkilotning iyerarxik tuzilmasi, madaniyat, bozor omillaridir. Ushbu ta'sir ko'rsatish omillari juda murakkab tushunchalar bo'lib, amaliyotda kamdan-kam hollarda bir-biridan alohida ravishda qo'llanadi. Ulardan birontasi qanchalik ustuvor bo'lsa, tashkilotdagi iqtisodiy vaziyat qiyofasi ham shunday bo'ladi. Ko'pincha kundalik muloqotda biz “kompetensiya” yoki “bilimdonlik” tushunchalarini tez-tez ishlatamiz. Ayniqsa, “professional kompetensiya” tushunchasi ko'proq diqqatni tortadi. Lekin, ba'zan insonlar bilan ishlash borasida “kommunikativ kompetensiya” tushunchasi ham ishlatiladi. Bu aslida o'zgalalar bilan til topisha bilish, o'z nutqini ravon va bir tekisda tuzish orqali fikrlarini boshqalarga yetkaza olish kabi muhim xususiyatlar bilan bog'lanadi. Psixologiya fanida, xususan, uning “Boshqaruv psixologiyasi” sohasida oxirgi paytlarda “ijtimoiy-psixologik kompetensiya” fenomeni ajratilmoqdaki, mohiyatan u – kommunikativ kompetensiyadan kengroq va ko'p qamrovliroqdir. Professional faoliyat shaxsdan juda ko'p bilimlarni hamda malakalarni talab qiladi. Nima uchun u yoki bu kasbni tanlaganini anglab yetgan shaxs (motivlar muammosi), endi o'z faoliyati va qobiliyatlarini boshqara bilishi va o'z ustida muttasil ishlab, malakalarini orttirib borishi shart. Professional kompetensiya shu nuqtai nazardan shaxs umumiy madaniyatining shunday yo'nalishiki, unga faqat kasbiga taalluqli bo'lgan bilimlardan tashqari, shu bilimlarning hosil bo'lish yo'llari va malakalarning takomillashuvini ta'minlovchi psixologik jarayonlar va holatlarni bilishni ham taqozo etadi. Bu psixologiyada bilish jarayonlari, ularning mohiyati va kechishini anglash demakdir.

Kasbga doir topshiriq va vazifalarni echish, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda pedagogik-psixologik yondashish ta'lim-tarbiyani modellashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar ham mazmunidan keng o'rinda foydalanishlari zamonaviy ta'lim tizimi rahbarlarining zimmasiga yuklatilmoqda. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda bevosita ta'lim tizimi rahbarlariga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari tadqiq etilib, o'rganilgan. Bu boradagi pedagogik-psixologik kasbiy kompetentlik yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Kasbiy faoliyatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kompetentlikning asosiy elementlari davlat ta'lim standartlarida o'z ifodasini topgan.

Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko'nikmalar, balki aniq strategiya, mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog'liq.

Shulardan kelib chiqib, kompetentlik va kompetensiya nima?. “Kompetentlik” o'qituvchining ma'lumoti, ko'nikmasi va qobiliyati va tajribasini o'z ichiga oladi va uning ma'lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. “Kompetensiya” bilimlarning umumiyligi va ularning insonlarda mavjudligi anglatadi. Har ikkala tushuncha ham o'qituvchilik faoliyatini sifatli tashkil etishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сорокина Т.М. Развитие профессиональной компетенции будущего учителя средствами интегрированного учебного содержания. // Начальная школа. - 2004. - №2.
2. Введенский В.Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога. // Педагогика. - 2003. - №10.
3. Лукьянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя. // Педагогика. - 2001. - №10.
4. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы. // “Народное образование” журналы. - 2003. - № 2.
5. Коджаспирова Г.М.. Педагогика. Учебник для студентов высших учебных заведений. - М.: “Гардарики”, 2004.